

Yubileyg‘a xozirlanuv

Toshkand shahrining Rusiya hukumati tarafidan zabit qiling‘onig‘a 15 yil 15 iyulda ellik yil to‘ladur. Bu munosabat ila kelajak sana kuz fasllarida ulug‘ bir Yubileyi (shodliq to‘yi) yasamakka rasmiy doiralarda hozirdan boshlab har turli hozirliklar ko‘rilmakdadir.

Rus vatandoshlarimizning bu Yubileyg‘a kamoli shodlik va tantana ila ishtirok etub buning xotirasina ulug‘ – ulug‘ muassasoti ilmiya va xayriyalar vujudga kelturmaklarida shubha yo‘qdur.

Ul vaqtida biz muslimonlar nima qilurmiz?

O‘zimizning eski taassubimizdan ayrilmasdan:

(Onlar shahar olg‘on kishi, qancha shodliq qilsalar yarashur. Biz esak shahar berg‘on kishi, bizga shodliq o‘rnig‘a xafalik kerak) deb og‘iz ochib qarab qolamizmi?

Mana bu savolg‘a javob bermak uchun taassubni bir tarafga otub mas’alaga insof nazari ila boqmak lozim. Durust Rusiya hukumati bizim shahrimizni zab etdi. Bundan bizga nima zarar keldi? Bizim fikrimizcha Rusiya hukumatidan Turkiston muslimonlari hech bir zarar ko‘rganlari yo‘q. Bilaks mamlakatimiz obod bo‘ldi. Ziroat va tijoratlarimiz xeyli taraqqiy qildi. Aholida ilm va hunarg‘a rag‘bat ortdi. Turkistonning ko‘p shaharlari temir yo‘l, teleg‘ram va telefunlar vositasila bir biriga qo‘sildi. Aholining holi va joni uchun komil amniyat hosil bo‘ldi. Rohat va saodati ortdi. Xalq boyidi. Har birida maktablar, jamiyatlar ochildi. Sanoatxona va tijoratxonalar ta’sis qilindi...

Mana bu ishlarning har biri Rusiya hukumatining husni idorasi orqasidandir. Hozirda Rusiya hukumati tarafidan tamom zabit etilmagan Buxoro va Xiva muslimonlarig‘a bir nazar solinsa be ixtiyor Rusiya hukumatina tashakkur etmak lozim kelur. Ehtimolki boshqalarga nazaran bizga ijtimoiy va siyosiy ishlarda bir qadar qisinqlilar vordir. Lekin bunlar ham vaqtincha bo‘lub darajai madaniyamiz ortgan sari bunday qisinqlarning ustimizdan ko‘tarilmag‘idan shubha yo‘qdur. Bino alayhi kelajak sana yasaladurg‘on Yubileyg‘a biz ham Rus vatandoshlarimiz ila barobar kamoli shodlik ila ishtirok etmakka hozirlanmog‘imiz kerak. Yubileyg‘a ishtirok esa o‘z oramizdag‘i to‘ylarg‘a ishtirok qabilindan, majlisg‘a borub osh yeb fotiha o‘qumakdangina iborat bo‘lmasdan madaniy bir yo‘l ila bo‘lmoq lozim.

YA’ni bu yili xotirasina ilmiy bir muassasa vujudg‘a keturmak uchun hozirdan boshlab sa’y va tashabbus qilmak va buning uchun bir komitet yasab iona yig‘maqqa hukumatdan ijozat so‘ramak lozim.

O‘zimizning ellik yillik sadoqatimizni shafiy‘ kelturub bunday bir foydali ishga ijozat so‘ralg‘onda hukumatimizning ham rad qilmaslig‘i tabi‘ydir.

YAsaladurg‘on milliy muassasag‘a kelancha shunday ulug‘ bu yili xotirasina yasalg‘onda albatta o‘zina munosib suratda ulug‘ maqsadlarga vosita o‘lsa kerak.

Bu esa ibtidoiy bir maktab, yoxud hozirg‘i tartibda bir madrasa bo‘lmaydir. Balki o‘zimizg‘a havo ila suv kabi lozim bo‘lub turg‘on bir doril muallimin yoxud bir madrasai oliya bo‘ladur.

Ehtimolki bizim oramizda tizdan idora ruhoniya ta’sis qilinub: qozi, muftiy, mudarris, muallim, imom va muazzin kabi ruhoni yishilarimizning har birlari shul

idorai ruhoniya huzurinda imtihon tutmakka va shul idoraning shahodatnomasi ilagina mazkur mansublарg'a kirmakka majbur tutulsalar. Ul vaqtда hozirgi maktablarimizning yetushdirgan kishilari kifoya qilmasdan ko'p qozixonalarimiz qozi va muftisiz, ko'p madrasa va maktablarimiz mudarris va muallimsiz va ko'p masjidlarimiz imom va muazzinsiz qolsa kerak. Chunki hozirg'i ruhoniylarimizning ko'plari o'z mansablarig'a loyiq ilmlardan bir idora huzurida imtihon berub shahodatnoma olmakdan ojizdirlar.

Mana bu hollar mulohaza qilinganda bizg'a tezdan harakat qilub qozi, muftiy, mudarris, muallim, imom va muazzin yetishturadurg'on mutazam bir madrasai oliya ochmak farz darajasinda zarurdir.

Buni esa shul Yubiley munosabati ila ochmak har jihatdan oson ham muvofiqdir. Shoyad muhtaram ulamoyi kirom va ag'niyo zul ihtiromlarimiz bu masalani musohila ila o'tkarmasdan ahamiyat nazari ila boqsalar.

Ubaydulloh.

Ubaydulloh Asadullaxo'jayev.

"Sadoyi Turkiston" gazetasi. - 1914. - 28 may. № 13 bet.

(O.Z.)